

Manzara nima?



Manzara – tabiat tasviri.

Manzarada turli fasllarga xos **tog'lar, daryolar, dalalar, o'rmonlar, bog'lar, dashtlar, osmon, bulutlarni** ko'rish mumkin.

Ona yurt inson yashaydigan, ulg'ayadigan, o'qiydigan va tabiat go'zalligini kuzatadigan maskandir.

O'zbekiston tabiati juda rang-barang. Bu yerda baland tog'lar, serquyosh tekisliklar, daryolar, bog'lar va dashtlarni ko'rish mumkin. Rassomlar ko'pincha o'z yeriga bo'lgan muhabbatini ona yurt tabiatini tasvirlash orqali ko'rsatib berishadi.

Rassom manzarani qanday chizadi?

Manzara chizganda hamma narsani qog'ozda to'g'ri joylashtirish muhim.

- **Uzoq plan** – uzoqda joylashgan narsalar: tog'lar, osmon, bulutlar.
- **O'rta plan** – o'rtada joylashgan narsalar: tepaliklar, daryo, kichikroq daraxtlar.
- **Yaqin plan** – bizga eng yaqin turgan narsalar: katta daraxtlar, butalar, toshlar, o't-o'lanlar.



Uzoqdagi narsalarni rassom **kichikroq** va **ochroq**, yaqindagilarini esa **yirikroq** va **yorqinroq** rangda tasvirlaydi.

Manzarada rang

Rang tabiat kayfiyatini tasvirlashga yordam beradi.

Moviy rang osmon va daryo uchun mos keladi.

Ko'k va **binafsha** tUSDagi ranglar tog'larni ko'rsatishga yordam beradi.

Sariq, to'q sariq va tilla tUSDagi ranglar kuzni ifodalaydi.

Yashil rang o't, buta va daraxtlar uchun ishlatiladi.



Ona yurt rassomi

O'rol Tansiqboyev – O'zbekistondagi eng mashhur rassomlardan biri. U Toshkentda tug'ilgan va bolaligidan ona yurt tabiatini kuzatishni yaxshi ko'rgan. Rassom O'zbekiston bo'ylab ko'p sayohat qilgan, tog'lar, daryolar, dashtlar va vodiylarning xomaki rasmlarini chizgan, so'ngra ulardan katta suratlar yaratgan.



O'rol Tansiqboyev
1904–1974

O'. Tansiqboyev **manzara** chizishni ayniqsa yaxshi ko'rgan. Uning asarlarida yurtimizning ulug'vor tog'lari, keng daryolari, gulga burkangan bog'lari va poyonsiz kengliklarini ko'rish mumkin. Rassom tabiat go'zalligini yorqin bo'yoqlar va yorug'lik yordamida tasvirlay olgan.

Qiziq tomoni shundaki, u ko'pgina suratlarini ustaxonada emas, balki bevosita tabiat qo'ynida chizgan. Rassomlar bunday ishni **plener** (*fransuzcha plein air* – “ochiq havo”) deb atashadi. U osmon rangining ertalab, kunduzi va kechqurun qanday o'zgarishini kuzatgan va buni o'z asarlarida ko'rsatishga harakat qilgan.



O'rol Tansiqboyev. “Tog'larda tong”

O'rol Tansiqboyevning suratlarini bugungi kunda O'zbekiston va boshqa davlatlar muzeylarida saqlanmoqda.

Uning asarlari odamlarga ona yurt go'zalligini ko'rish va tabiatga bo'lgan muhabbatni his qilishga yordam beradi.

Ishni boshlashdan oldin derazadan tashqariga qarab, tabiatga diqqat bilan boqing yoki o'zingizga tanish bo'lgan biror manzarani eslang. Bugun osmon qanday rangda? Daraxtlar, maysalar yoki bulutlarda qanday tuslarni ko'rish mumkin? Haqiqiy rassomlar bunday detallarni doim payqashadi va ulardan o'z suratlarida foydalanishadi.





Agar siz rassom bo'lganingizda, ona yurtigingizning qaysi go'shasini birinchi bo'lib chizishni istardingiz? Nima uchun?



1. Rassom qaysi bo'yoqlardan foydalangan?
2. Surati qanday kayfiyatni ifodalaydi?
3. Sizningcha, rassom nima uchun tabiatni bunchalik yaxshi ko'rgan?

Chimyon tog'larida

Chimyon tog'lari – O'zbekistonning eng go'zal go'shalaridan biri. Oltin kuz kelishi bilan uning yonbag'irlari tillarang va alvon liboslarga burkanadi, viqorli adirlar quchog'ida esa billurdek tiniq tog' daryosi jilvalanib oqadi.



Bugun siz **kuzgi manzara** rasmini chizasiz. Ishingizda tog', kichik daryo, tepalik, daraxt, buta va tosh kabilar o'z ifodasini topishi lozim.


Sizga kerak bo'ladi:

albom varag'i, oddiy qalam, o'chirg'ich, guash yoki akvarel bo'yoqlari, mo'yqalam, suv solingan stakancha, qog'oz sochiqlar.

Rasm chizish bosqichlari:

1. **Xomaki reja tayyorlang.** Yengil chiziqlar bilan tog'lar, bulutlar, tepaliklar, daryo, daraxtlar va toshlarning o'rnini belgilang.
2. **Osmon va tog'larni bo'yang.** Manzaraning kengligi va chuqurligini tasvirlashga yordam beradigan tuslarni tanlang.
3. **Tepaliklar va daryoni bo'yang.** Tepaliklarni sariq-yashil va tillarang tuslarga, daryoni esa moviy rangga bo'yang.
4. **Daraxtlar va butalarni qo'shing.** Kuzgi ranglardan foydalaning.
5. **Ishni yakunlang.** Toshlarni kulrangga bo'yang. Suv yuzasiga yorqin chiziqlar, o'tlar uchun esa kichik surtmalar chizib chiqing.

1



2



3



4

